XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 4-may VII-29-36-4-67-K/26 Shahrisabz tumani

2026-yilda Shahrisabz tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

2026-yilda Shahrisabz tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida”gi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman soliq inspeksiyasining murojaatiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarori bilan xalq deputatlari tuman Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Shahrisabz tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (G‘.Karamanov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (A.Bazarov), tuman soliq inspeksiyasi (I.Sa’dullayev)lar mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman budjetiga yo‘naltirilishi yuzasidan chora-tadbir belgilash choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashi deputatlari “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlar bo‘yicha jamoatchilik nazorati o‘rnatish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Baratov)ga, qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (G‘.Karamanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e`tiboran uch oy o‘tib kuchga kiradi.

Kengash raisi **UZAKOV ARSLON AVAZOVICH**

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani
Kengashining
2026-yil 4-maydagi
VII-29-36-4-67-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Shahrisabz tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

№	Yig‘im turi	Bir oyda so‘mda	
		O‘RQ-1105-son Qonunning 9-ilovasida belgilangan chegaralangan stavkalar	2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori
1	“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	330 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	165 000